

VII. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2022 yilning yanvar-dekabrida chakana tovar aylanmasi 10803,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 112,3 foizni tashkil etdi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo‘yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021 yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	10803,0	112,3	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo‘yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	10803,0	112,3	100,0
undan fuqarolarning hususiy mulki	4495,7	110,6	41,6


Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2022 yilning yanvar-dekabrida 5087,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 112,2 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 5715,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 112,4 foizga o‘sdi.

2022 yilning yanvar-dekabrida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021 yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Chakana tovar aylanmasi	10803,0	112,3	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	5087,5	112,2	47,1
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	5715,5	112,4	52,9
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	1219,8	119,4	11,3


Uyushmagan savdo tovar aylanmasi



2022 yilning yanvar- dekabr oylarida Respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 731,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (449,0 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida Respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **487,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har hil yoshdagi qora mollar savdosi **389,8** mlrd. so‘mni, qo‘y va echkilar **77,9** mlrd. so‘mni, otlar **10,9** mlrd. so‘mni, parrandala **4,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to‘liq tarkibi quyidagi ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topgan:




Ulgurji savdo tovar aylanmasi

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va
kichik korxonalar

Respublika bo‘yicha 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3003,5** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **6,2** % ga o‘tdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **412,6** mlrd. so‘mni (o‘zgarish sur‘ati **74,8** %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2590,9** mlrd. so‘mni tashkil etib **13,8** % ga o‘tdi.




Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 227,1 mlrd. so‘mni tashkil etib 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 106,9 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo (umumiy ovqatlanish faoliyatini qo‘shgan holda) tovar aylanmasi aholi jon boshiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 110,8 foiz bo‘lib, 5505,0 ming so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 10803,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 12,3 foizga o‘ydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 764,7 mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati 133,4 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 10038,3 mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati 111,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1219,8 mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati 119,4 %) tashkil etdi.

Yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so‘m)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo‘lgan Nukus shahri (Respublika bo‘yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 29,9 %), Beruniy (9,2 %), To‘rtko‘l (13,2 %), Xo‘jayli (8,8 %) va Amudaryo (6,2 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o‘shishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 764,7 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 133,4 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,1 % ulushiga to‘g‘ri keladi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 10038,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 111,0 foizni tashkil etdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,9 foizga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi,
(jamiga nisbatan foiz hisobida)

2021 yil
yanvar- dekabr



2022 yil
yanvar- dekabr



 **Yirik korxonalar**
 **Kichik korxonalar**

Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	<i>yirik korxonalar (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>	<i>kichik tadbirkorlik (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	764,7	133,4	10 038,3	111,0
Nukus sh.	587,4	157,9	2 643,4	105,3
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	16,3	60,2	655,0	112,1
Beruniy	42,0	172,0	955,1	107,3
Bo‘zatov	0,3	74,6	43,1	114,2
Qonliko‘l	0,6	83,8	246,5	109,6
Qorao‘zak	1,2	99,1	288,4	110,7
Kegeyli	1,3	101,7	241,3	116,5
Qo‘ng‘irot	17,2	54,3	689,9	117,5
Mo‘ynoq	0,5	110,2	106,1	115,3
Nukus	1,3	111,7	197,4	123,1
Taxiatosh	23,6	63,9	211,6	118,8
Taxtako‘pir	0,9	53,8	217,1	115,3
To‘rtko‘l	33,3	105,4	1 395,0	118,6
Xo‘jayli	14,2	83,5	938,9	109,3
Chimboy	10,6	100,9	417,1	111,9
Shumanay	0,8	87,7	199,0	109,8
Ellikqal‘a	13,0	93,1	593,7	110,6

2022 yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o‘sish sur‘ati bo‘yicha To‘rtko‘l (118,6 %), Chimboy (111,9 %), Kegeyli tumani (116,5 %) va Taxiatoosh (118,8 %) tumanlarida yuqori darajada bo‘ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,1 foizni tashkil etib, yirik korxonalarining eng katta ulushi Nukus shahrida (18,2 %), Taxiatoosh (10,0 %) va Beruniy (4,2 %) tumanlarida kuzatildi.